IKKINCHI AXBOROT XATI
Xalqaro ilmiy konferensiya
«BARQAROR RIVOJLANISH UCHUN ILG‘OR MATERIALLAR, NANOTEXNOLOGIYALAR VA QUYOSH MATERIALLARSHUNOSLIGI»
ICAMNSM-2026
2026-yil 29–30-oktabr

Hurmatli hamkasblar!

O‘zbekiston Respublikasi Fanlar akademiyasi Materialshunoslik instituti olimlar, tadqiqotchilar, oliy ta’lim muassasalari o‘qituvchilari, sanoat korxonalari, innovatsion kompaniyalar vakillari, yosh olimlar, doktorantlar va talabalarni 2026-yil 29–30-oktabr kunlari Toshkent shahrida va Katta quyosh pechi bazasida (Parkent tumani, Toshkent viloyati, O‘zbekiston Respublikasi) bo‘lib o‘tadigan «Barqaror rivojlanish uchun ilg‘or materiallar, nanotexnologiyalar va quyosh materiallarshunosligi» Xalqaro ilmiy konferensiyasi ishida ishtirok etishga taklif qiladi.

Konferensiyaning maqsadi – materialshunoslik, nanotexnologiyalar, quyosh energetikasi va quyosh materiallarshunosligining zamonaviy yutuqlari va rivojlanish istiqbollarini muhokama qilish, xalqaro ilmiy-texnik hamkorlikni rivojlantirish, shuningdek, barqaror rivojlanish vazifalarini hal etish uchun innovatsion ishlanmalarni joriy etishga ko‘maklashish.

Materiallarni nashr etish

Konferensiya materiallari ISBN berilgan elektron ilmiy ishlar to‘plamida nashr etiladi va konferensiyaning rasmiy veb-saytiga joylashtiriladi. Nashr uchun ma’ruza tezislari ingliz tilida qabul qilinadi. Barcha kelib tushgan materiallar konferensiya mavzusiga va rasmiylashtirish talablariga muvofiqligi bo‘yicha texnik taqrizdan o‘tkaziladi.

Muhim sanalar

- Arizalar va tezislarni qabul qilish: 2026-yil 5-oktabrgacha.
- Ma’ruzalar qabul qilinganligi haqida xabarnoma: 2026-yil 15-oktabrgacha.
- Konferensiya dasturini e’lon qilish: 2026-yil 25-oktabrgacha.
- Konferensiyani o‘tkazish: 2026-yil 29–30-oktabr.

O‘tkazilish joyi

O‘zbekiston Respublikasi Fanlar akademiyasi, Toshkent shahri, O‘zbekiston Respublikasi.

Materialshunoslik institutining «Katta quyosh pechi» noyob ilmiy obyekti (Parkent tumani, Toshkent viloyati)

Tashkilotchilar

- O‘zbekiston Respublikasi Fanlar akademiyasi;
- O‘zbekiston Respublikasi Fanlar akademiyasi Materialshunoslik instituti.

Batafsil ma’lumot www.imssolar.uz

Tashkiliy qo‘mita kontaktlari
O‘zbekiston Respublikasi Fanlar akademiyasi Materialshunoslik instituti
E-mail: conference@imssolar.uz
Web: www.imssolar.uz

Sizni Xalqaro ilmiy konferensiya ishtirokchilari safida ko‘rishdan mamnun bo‘lamiz va samarali ilmiy hamkorlikka umid qilamiz!